
BITIRUVCHI YOShLAR BILAN NAVBATDAGI UChRASHUV INSTITUTDA O'TKAZILDI

Farg'ona Politehnika institutida o'tkazilgan uchrashuvda 300 nafarga yaqin bitiruvchilar ishtirok etishdi. Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar, Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan berilayotgan imtiyozlar haqida batafsil ma'lumotlar berdi.

Uchrashuvda institut, texnikumlar, kasb-hunar va umumta'lim maktablarining bitiruvchilari ishtirok etishdi. Yoshlarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari hamda ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha bergan savollariga mutaxassislar tomonidan yo'nalishlar berildi.

"Yoshlar daftari"da ro'yxatda turadigan yoshlarining to'lov kontrakt mablag'ining 50 foizi to'lab berilishi, shuningdek, oliy ta'lim talabasi bo'la olmagan yoshlarni kafolat xati asosida bandligini ta'minlash borasida tizimli ishlar olib borilishi bo'yicha ham tadbir ishtirokchilariga tegishli tushunchalar berildi.

2022-07-18 09:58:22